




ISBN 978-9943-325-56-2
9 789943 325562

TIKUVCHI CHEVAR ishlab chiqarish bo'yicha texnologik kartalar to'plami



TIKUVCHI CHEVAR

ishlab chiqarish bo'yicha
texnologik kartalar to'plami



684
T-56

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

N. Hamroyeva


TIKUVCHI CHEVAR

Ishlab chiqarish ta'limidan texnologik kartalar to'plami

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Ikkinchi nashri

TOSHKENT
•TALQIN•
2008



37.24-2
T56

Tavsiya etilayotgan o'quv qo'llanma boshlang'ich kasb-hunar ta'limi Davlat standarti asosida yozilgan.

Kitobda yakka tartibda ayollar ust kiyimini tikish to'la ifodalangan. Materiallar hammasi rasmlar bilan ifodalangan. O'quv qo'llanmadan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari konspekt tariqasida foydalanishlari mumkin. Shuningdek, ushbu kitob tikishni o'rganuvchilarga ham katta yordam beradi.

ISBN 978-9943-325-56-2

© «Pfaff Singer» savdo uyi, 2003-y.
© «Talqin» nashriyoti, 2008-y.

QO'L ISHLARI

Igna va angishvona bilan yo'l-yo'riq

№	Vazifani bajarish uchun ko'rsatma		
	Bajarish ketma-ketligi	Texnologiya talabi	Bajarilayotgan ish usullari
1.	Ignaga ip o'tkazish	Ipning uzunligi 80 sm dan oshmasligi lozim. Ignaga ip o'tkazishdan oldin o'ng qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan ip uchini burang. Ipning uchini 0,8–1,0 sm chiqarib, chap qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan ushlang. Ignani chap qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan ushlang (1-rasm). Buralgan ipning uchini igna teshigiga kirgizing va chap qo'l bilan 2/3 uzunligigacha tortib chiqarib, shu uchini tugun qilib tugib qo'ying.	 1-rasm
2.	Ip uchini tugish	Ip uchini chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i atrofida aylantirib halqa hosil qiling, so'ngra qisib, bosh barmoq bilan pastga, ko'rsatkich barmoq bilan yuqoriga burang. Shundan so'ng halqa barmoqdan chiqarilib, bosh va o'rtacha barmoq orasidan tortib tugun tuting (2-rasm).	 2-rasm

ishlashni o'rganish kartasi

Ogohlantirish va nuqsonlarni tuzatish			
Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish	Uchraydigan nuqsonlar	Nuqson sabablari	Yo'qotish usullari
1. A. Ip uzunligini santimetr yordamida tekshiring. B. Ip uchini yaxshilab buralganligini tekshiring.	Ip belgilanganidan uzun. Ipning uchi igna teshigiga kirmaydi	Ishni bajarishdagi e'tiborsizlik. Ipning uchi yaxshi buralmagan. Ip tolalarining har tomonga qaraganligi	Ipni qisqartirib ip uchini qaytadan burash.
2. Ip uchi qanday tugilganligini tekshiring.	Tugundan so'ng ip uchi qolgan	Halqa hosil qilishda, burashdan oldin ip uchi katta qoldirilgan. Ip uchi buralavotganda barmoqlar orasida bo'lishi kerak.	Mashqni qaytaring

№	Vazifani bajarish uchun ko'rsatma		
	Bajarish ketma-ketligi	Texnologiya talabi	Bajarilayotgan ish usullari
3.	Angishvona va o'ng qo'l barmoqlarini ish holatiga keltirish	Angishvonani o'ng qo'l-ning o'rta barmog'iga taqing. Bosh va ko'rsatkich barmoqlarni birlashtiring. Qolgan barmoqlarni kaftga qarata buking, lekin qismang, ularni bo'sh tuting. Bosh va ko'rsatkich barmoqlardan hosil qilingan yoriqdan angishvona yaxshi ko'rinishi kerak. Ko'rsatkich va bosh barmoq bilan ignani oling.	 3-rasm
4.	Igna va angishvona bilan ishlash	Ignani o'rtasidan, angishvonaga perpendikular holda (3-rasm). Angishvona tagi bilan ignani gazlamaga sanching. Igna gazlamaga chiqarilgandan so'ng, uning boshqa tomonidan ignani tortib oling (4-rasm). Mashqni bir necha marta qaytaring.	 4-rasm

Ogohlantirish va nuqsonlarni tuzatish			
Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish	Uchraydigan nuqsonlar	Nuqson sabablari	Yo'qotish usullari
3 Rasm bo'yicha qo'l barmoqlari holatini tekshiring	Ko'rsatkich vabosh barmoq yaxshi bukilmagan. Qolgan barmoqlar kam bukilgan yoki kaftga qattiq siqilgan	Qo'l barmoqlarining yangi holatga moslashmaganligi	O'ng qo'lingiz bilan bir nechta mashq qiling. Barmoqlarni tez siqib qo'yib yuboring. Mashqni angishvona bilan bajaring.
4 Igna holatini angishvonaga nisbatan tekshiring.	Igna angishvonaga perpendikular emas	Ishni bajarishdagi e'tiborsizlik	Igna holatini to'g'rilang. Ignani gazlamaga har bir sanchili- ishni kuzating.



Savollar:

1. Nima uchun ipning uzunligi 80 sm dan uzun bo'lishi mumkin emas?
2. Nima uchun tikishda ip uchi tugiladi?
3. Nima maqsadda tikishda angishvona taqiladi?





Qo'lda bajariladigan

№	Qaviqqatorlarning nomlanishi	Qaviq o'lchami
1	Ko'klash	0,7–2,5 sm
2	Nusxalama	Qaviq uzunligi 1,5 sm sanchilish orasi 0,5–0,7 sm
3	Yo'rma qaviq	1 sm da 3–4 qaviq
4	Qiya biriktirma	1 sm da – 3–4 qaviq 0,3–0,4 sm
5	Biriktirma iroqisimon	0,5–0,7 sm
6	Yashirin biriktirma	1 sm da 3–4 qaviq
7	Biriktirma qaviq	0,1–0,4 sm

qaviqqatorlarning texnik tavsifi

Qo'llanishi	Rasm
Detallarni vaqtincha ko'klashda	
Chiziqni biridan ikkinchisiga ko'chirish uchun	
Qirgimlarni titilib ketishdan saqlash uchun	
Titilmaydigan gazlama uchun qo'llaniladi	
Qalin titiluvchan gazlamalarni biriktirish uchun	
Yupqa titiluvchan gazlamani biriktirish uchun	
Detallarni biriktirishda mashina baxyasi o'rniga ishlatiladi	




№	Qaviqqatorlarni nomlanishi	Qaviq o'lchami
8	Halqasimon qaviqlar	1 sm da 10–15 qaviq
9	To'g'ri puxtalama	1 sm da 10–15 qaviqlar
10	Uchburchakli puxtalama (shakldor)	Uchburchak tomonlari uzunligi 0,5–2 sm
11	Furnituralarni chatish: tugmalar	Ikki teshikli tugmalar 3–5 qaviq bilan, turli teshikli tugmalar har bir juftiga 3–4 qaviq bilan chatiladi
12	Ilgaklar	Ilgaklar 3–4 joyida 4–5 qaviq bilan

Qo'llanishi	Rasm
Petlarni qo'lda yo'rmash uchun	
Cho'ntak, petlarni puxtalash uchun	
Taxlama kesimlarini puxtalash va hokazo	
Taqilma, bezak uchun	
Taqilma uchun	

**«Qo'l qaviq qatorlari»
yo'l-yo'riq texno**




№	Nomlanishi	Belgilanishi, qo'llanishining texnik sharti
1.	Sirma qaviq-qator	Detallarni kesimlari bo'yicha vaqtincha biriktirish uchun qo'llaniladi. a) detallarni sirma qaviqqator bilan solqili ko'klashda— 0,75–1 sm; b) ularni solqisiz ko'klashda—1,5–2 sm; v) detal ziylarini bukib ko'klashda— 1,5–3 sm; g) kontur chiziqlarni belgilashda va hokazo — 1–2 sm
2.	Nusxalama (solqi) — qaviqqatorlari	Detal konturlarini gazlamaning ikkinchi bo'lagiga ko'chirishda(simmetrik detalga) ip tarang tortilmaydi, 1–1,5 sm balandlikdagi katta bo'lmagan halqalar hosil qilinadi.Qaviq uzunligi — 0,3–0,5 sm. Qaviqlar orasidagi masofa— 0,5–0,7 sm
3.	Yashirin biriktirma qaviq	Bukilgan qirg'og'ining uzunligi 1,5–1 sm kesilgan qirg'og'iniki 0,2–0,3 sm

**mavzusi bo'yicha
logiya kartasi**

Rasm




№	Nomlanishi	Belgilanishi, qo'llanishining texnik sharti
4	Iroqisimon qaviqlar	Kesimlarning buklangan chetlari chapdan o'ngga tikiladi, bezak uchun ishlatiladi. Qaviq uzunligi — 0,5–0,7 sm.
5	Qiya yo'rma qaviqqator	Qirqimlarni titilib ketishdan saqlash uchun (chapdan o'ngga qirqimni bukkanda holda qaviqqator uzunligi 0,5–0,7 sm), gazlama ilib tikiladi, o'lchami 0,4–0,5 sm.
6	Halqasimon qaviqlar	Kesma petlarni yo'rmasda va ipli petlarni tayyorlashda ishlatiladi. Igna gazlama qirqimi chetidan 0,2–0,4 sm naridan sanchiladi. 1 sm ga 12–15 qaviq to'g'ri keladi.
7	To'rsimon qaviqqator	Detallarni doimiy birlashtirishda, mashinada tikishning iloji bo'lmaganda, 1 sm da 4 qaviq.


Rasm



Number	Description
1	 Diagram 1: A rectangular block with diagonal hatching. A smaller rectangle is attached to the bottom center, with a line pointing to it from the left.
2	 Diagram 2: A rectangular block with diagonal hatching. A smaller rectangle is attached to the bottom center, with a line pointing to it from the left.
3	 Diagram 3: A rectangular block with diagonal hatching. A smaller rectangle is attached to the bottom center, with a line pointing to it from the left.
4	 Diagram 4: A rectangular block with diagonal hatching. A smaller rectangle is attached to the bottom center, with a line pointing to it from the left.

MASHINADA BAJARILADIGAN ISHLAR





2-374






**«Mashina ishlari»
yo'l-yo'riq texno**

№	Chok nomi	Bajarish uchun t.sh. (texnik shartlar)
1	Biriktirma	Chok kengligi — 0,7–0,8 sm 1–1,5 sm
2	Bostirma	Chok kengligi — 0,2–1 sm (ustki detal i pak bilan), (biriktirma chok kengligi bezak chokiga bog'liq)
3	Yorma	Chok kengligi — 0,2–1 sm (ustki detal i pak bilan)
4	Tutashtirma	Mag'iz kengligi — 3–2,5 sm Chok kengligi — 0,7–1 sm





**mavzusi bo'yicha
logiya kartasi**

Amalda qo'llanishi	Eskiz, sxematik ifodalash
Ostki yoqa bo'laklari, adip bo'laklari, yon, yelka qirqimlari	
Orqa detalning o'rta choki, yon choki, koketka	
Orqa detalning o'rta choki, koketka	
Bort qotirmasining bo'laklari (bort qotirma, ostki yoqa qotirmasi)	

№	Chok nomi	Bajarish uchun t.sh. (texnik shartlar)
5	Ichki	Ustki detal tomonidan chok kengligi — 0,4–0,5 sm, ostki detal — 1 sm — 1,5 sm, bukilgan chetidan 0,1–0,2 sm
6	Quyma	Bir detalning ikkinchi detalga o'tishi — 1 sm, bir detalning qirqimi bukib dazmollanadi yoki bukib ko'klanadi
7	Qo'sh	Chok kengligi: 1. 0,3–0,5 sm 2. 0,5–0,7 sm
8	Mag'iz	Mag'iz kengligi — 1,5–2 sm, chok kengligi — 0,4–0,9 sm

Amalda qo'llanishi	Eskiz, sxematik ifodalash
Jinsi ko'ylak, shimlar, yubkalar	
Detalga mayda bo'laklarini biriktirishda: asosiy detalga koketkani biriktirishda	
Cho'ntak qopi, cho'ntak, yostiq jildi detallarini biriktirishda	
Adip, yoqa, bo'yin o'mizi qirqimlari	






№	Chok nomi	Bajarish uchun t.sh. (texnik shartlar)
9	Buklama	Qirqi mi yo'rmab, bukiladi. Qirqimdan chok kengligi 0,1–0,2 sm bukilgandan keyin chok kengligi 0,1–0,2 sm
10	Ag'darma	Chok kengligi – 0,5–0,7 sm
11	Mag'iz	Mag'iz kengligi – 1,5–2 sm (mag'iz kengligiga bog'liq), chok kengligi – 1 sm
12	Relyefli shnur bilan (bo'rtma)	Yo'naltiruvchi tepki yordamida kerakli kenglik da shnur qo'yiladi
13	Relyefli bostirma (bo'rtma)	Chok kengligi – 0,2 dan – 1 sm gacha

Amalda qo'llanishi	Eskiz, sxematik ifodalash
Kiyim etaklari, ichki kiyimlarda	
Cho'ntak qopqoq, yoqa, adip	
Bo'yin o'mizi, koketka	
Kurtka, palto, yubka	
Bluzka, palto, ko'ylak	


**«Mashina choklari»
yo'l-yo'riq texno**

№	Chok nomi	Bajarish uchun t.sh.
Birlashtiruvchi		
1	Biriktirma(yorma, quyma, bostirma)	Chok kengligi — 0,5–0,7 sm, 1–1,5 sm
2	Bostirma	Chok kengligi — 0,5–1 sm (ustki detal — ipak bilan), biriktirma chok kengligi bezak chok kengligiga bog'liq
3	Yorma	Chok kengligi — 0,5–1 sm, biriktiruvchi chok kengligi bezak chokka bog'liq
4	Quyma(ochiq va yopiq qirqimli)	Bir detalning ikkinchi detalga o'tishi — 1 sm, bir detalning qirqimi bukib ko'klanadi yoki bukib dazmollanadi
5	Tutashtirma	Mag'iz kengligi — 2–2,5 sm chok kengligi — 0,7–1 sm
6	Qo'sh	Chok kengligi: 1. 0,3–0,4 sm; 2. 0,5–0,7 sm
7	Ichki	Chok kengligi: 1) ustki detal tomonidan — 0,4–0,5 sm, ostki — 1 sm–1,5 (gazlama qalinligiga); 2) 0,1–0,2 sm bukilishda

**mavzusiga doir
logiya kartasi**

Amalda qo'llanishi	Eskiz, sxematik ifodalash
choklar	
Adip bo'laklari, yoqa va yelka qirqimlari	 The sketches show three types of notches: a simple rectangular notch on a collar, a notched lapel, and a notched collar stand.
Relyeflar, yon chok orqa detalining o'rta qirqimi	 The sketches show notches on a side detail and a back detail, illustrating how they are represented in technical drawing.
Orqa detalning o'rta choki, koketka	 The sketch shows a notched detail on a back piece, with a small rectangular notch.
Detalga mayda bo'laklarni biriktirishda (ostki yoqa qotirmalari), asosiy detalga koketkani biriktirishda	 The sketches show two ways to attach small parts: one with a simple line and another with a more complex, curved attachment.
Detalga mayda bo'laklarni biriktirishda	 The sketch shows two small rectangular parts being attached to a main horizontal line.
Cho'ntaklarga ishlov berishda	 The sketch shows a notched collar with a small rectangular notch.
Jinsi, yubka, ichki kiyim	 The sketch shows a notched collar with a small rectangular notch.

№	Chok nomi	Bajarish uchun t.sh.
Ziy		
8	Buklama(ochiq va yopiq qirqimli)	1) qirqimdan 0,2–0,3 sm; 2) 0,1–0,2 sm va 0,5–4 sm gaqirqim ikki marta buklanadi
	Ag'darma	0,5–0,7 sm
10	Mag'iz (ochiq va yopiq qirqimli)	Mag'iz kengligi 2,5–3 sm, chok kengligi – 0,4–0,9 sm, ikkinchi chok – mag'izga tikish choki

Amalda qo'llanishi	Eskiz, sxematik ifodalash
choklar	
Kiyim etagi, yeng, ichki kiyim	
Qopqoq, manjet, xlastik, adip ziylari	
Adip ziylari, ichki qirqim, kiyim etagi	



**TIKILADIGAN
KIYIMLARNING
AYRIM DETAL
VA BO'LAKLARIGA
ISHLOV BERISH**

Vitochkalarni, qirqimlarni, cho'ntak

№	Bo'linmas texnologik operatsiyalar	Bajarish uchun t.sh.
1	O'ngini ichqariga bukib belgilangan nazorat chiziq bo'yicha ingichka tomonidan kengaygan tomonga ko'klansin	Biriktirma qaviq o'lchami – 0,5–1 sm
2	Vitochka biriktirib tikilsin	1 sm da baxyalar soni – 4–5. Biriktirib tikish detal qirqimidan boshlanadi. Chokni uchi qaytma baxyaqator bilan mustahkamlansin
3	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	
4	Chok ustidan dazmollansin	Dazmol qizish harorati: ip tolali – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C
5	Vitochka bir tomonga yotqizib dazmollansin	Dazmol qizish harorati: ip – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C
6	Vitochka uchidagi solqi dazmollab kirishtirilsin	Dazmol qizish harorati: ip – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C

qopqoqlarni tikish yo'l-yo'riq kartasi

Jihozlar va moslamalar	Rasm
To'g'nag'ich, igna, angishvona, ip, qaychi	
97 kl. mashinasi 1022 kl mashinasi Ip, qaychi	
Qoziqcha	
Dazmol doskasi, dazmol	
Dazmollash doskasi, dazmol	
Dazmollash doskasi, dazmol	

Vitochka detal o'rtasida

№	Bo'linmas texnologik operatsiya	Bajarish uchun t.sh.
1	O'ngini ichkariga bukib belgilangan nazorat chiziq bo'yicha ingichka tomonidan kengaygan tomonga ko'klansin	Biriktirma qaviq o'lchami – 0,5–1 sm
2	Vitochka biriktirib tikilsin	1 sm da baxyalar soni – 4–5. Biriktirib tikish detal qirqimidan boshlanadi. Chokning uchi qaytma baxyaqator bilan mustahkamlansin
3	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	
4	Chok ustidan dazmollansin	Dazmol qizish harorati: ip – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C
5	Vitochka bir tomonga yotqizib dazmollansin	Dazmol qizish harorati: ip – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C
6	Vitochka uchidagi solqi dazmollab kirishtirilsin	Dazmol qizish harorati: ip – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C

yo'l-yo'riq kartasi

Jihozlar va moslamalar	Rasm
To'g'nag'ich, igna, angishvona, ip, qaychi	
97 kl.mashinasi 1022 kl mashinasi Ip, qaychi	
Qoziqcha	
Dazmollash doskasi, dazmol	
Dazmollash doskasi, dazmol	
Dazmollash doskasi, dazmol	

Qirqimlarni tikish

№	Bo'linmas texnologik operatsiya	Bajarish uchun t.sh.
1	Burma hosil qilish uchun qirqimning uzun tomoni bo'ylab ikkita parallel baxyaqator yuritilsin	Qirqim bilan baxya orasidagi masofa—0,8—1,0 sm
2	Qirqim tomonlari teng bo'lmaguncha burma tortilsin	
3	Detal o'ngi ichiga o'girib qo'yilsin, qirqimlarni tenglagan holda, burmalar bir me'yorda tarqatilsin	
4	Qirqim kesimlari ko'klansin	Ko'klash detalning burmali qirqim tomonidan 1,0—1,5 sm ichkaridan bajariladi. Chok eni 0,7—0,8 sm
5	Qirqim burmali tomonidan ko'klansin. Qirqma oxirida chok to yo'qolguncha toraytirib borilsin	Chok eni 0,7—1,0 sm, baxya qator oxirida 1—1,5 sm oshirib to'xtatiladi
6	Ko'klangan ipi so'kib tashlansin	

yo'l-yo'riq kartasi

Jihozlar va moslama	Rasm
1022 kl mashina 97 kl mashina	
	
	
Igna, angishvona, ip, qaychi	
Qoziqcha	





№	Bo'linmas texnologik operatsiya	Bajarish uchun t.sh.
7	Biriktirma chok yo'rmalsin	Terilgan detal tomonidan. Yo'rmash choki eni 4 mm, baxyaqatordagi baxya zichligi – 10 mmga 3–3,5
8	Chok detalning burmasiz tomoniga qayrilib, yotqizib ko'klanadi	
9	Chok dazmollab yotqizilsin	Dazmol harorati. ip – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C
10	Yotqizib ko'klangan ip so'kib tashlansin	
11	Chok bostirib tikilsin	Modelga ko'ra
12	Ishlov berilgan uzal uzil-kesil N.I.I.lanadi. (namlab isitib ishlash) N.I.I.	Dazmol qizish harorati: ip – 130–150°C ipak – 100°C jun – 100–110°C

Jihozlar va moslama	Rasm
"Yamato" ziy yo'rmash mashinasi"	
Ip, angishvona, qaychi	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	
Qoziqcha	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	

**Cho'ntak qopqoq chetlariga
dazmollab, mag'iz choki bilan**

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t. sh.
1	Gazlama bo'lagi bichilsin	Tanda i piga 45° burchak ostida, bo'lak eni mag'izning ikkilantirilgan eniga 1,0–1,5 sm qo'shiladi (qirqimni bukish uchun)
2	Bo'lak cho'zilsin, qirqimlari qayirilib dazmollansin	Bo'lak cho'ntak qopqoq shaklida cho'ziladi, qirqimlari teskarisiga 0,5 sm qayirilib dazmollanadi
3	O'rtasidan bo'ylamasiga qayirilsin va dazmollansin	Bo'lak ning bir cheti ikkinchisidan 0,1–0,2 sm chiqib turadigan qilib
4	Bo'lak orasiga cho'ntak qopqoq chetlari qo'yilsin	Shundang bo'lakning enli tomoni ostki qopqoq tomonida turishi kerak
5	Bo'lak ko'klansin	Bo'lakning ensiz tomonidan ko'klab
6	Bo'lak bostirib tikilsin	Qayirilgan chetidan 0,1–0,2 sm ichkaridan, enli tomoni baxya qator ostida qolishi kerak
7	Ko'klash iplari so'kib tashlansin	Ipni kesib
8	Dazmollansin. Ishlov berish sifati tekshirilsin	




**bezak gazlama bo'lagini bukib
ishlov berish yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Bo'r, santimetr, qaychi	Q	
Dazmol	D	
Dazmol	D	
	Q	
Ip, igna	Q	
1022 kl mashina	M	
Qaychi		
Dazmol	D	

Cho'ntak qopqoq chetlariga bukib, dazmollamasdan

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t. sh.
1	Gazlama bo'lagi bichilsin	Tanda ipiga 45° burchak ostida
2	Bo'lak cho'ntak ustiga qo'yilsin	O'ngi bilan ostki qopqoq o'ngiga qo'yiladi
3	Bo'lak ko'klansin	
4	Bo'lak tikilsin	Cho'ntak qopqoqni o'ng tomonidan mag'iz enidan 0,1 sm kam masofada
5	Ko'klash iplari so'kib tashlansin	Ularni kesgan holda
6	Bo'lak qirqimi ichkariga qayirilsin	Bo'lak cho'ntak qopqoq o'ngiga ag'dariladi, qirqimi ulash baxyaqatorni yopadigan darajada ichkariga qayriladi
7	Bo'lak bukib ko'klansin	Bukilishdan 0,2 sm
8	Bo'lak qopqoqqa bostirib tikilsin	Qayirilgan chetidan 0,1 sm ichkaridan
9	Bukib ko'klangan iplari so'kib tashlansin	Ularni kesib
10	Tayyor qopqoq dazmollansin	
11	Cho'ntak qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	




**bezak gazlama bo'lagi qirqimini
ishlov berish yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Bo'r, santimetr, qaychi	Q	
	Q	
Igna, ip	Q	
1022 kl mashina	M	
Qaychi	Q	
Ip, igna	Q	
Ip, igna	Q	
1022 kl mashina	M	
Qaychi	Q	
Dazmol	D	
	Q	

To'g'ri to'rtburchak shakldagi quyma chok bilan tikish

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t. sh.
1	Beyka bichilsin	
2	Beyka bo'laklari aniqlansin va biriktirish choklari chizig'i belgilansin	
3	Beyka bo'laklari tikilsin	
4	Choklar kesilsin	
5	Yorib dazmollansin yoki ikki tomonga yotqizilsin	
6	Beykaning ichki tomoni qayirib bukib dazmollanadi	Teskari tomoniga 0,5–0,7 sm
7	Cho'ntak qopqoqqa beykani tikish chizig'i belgilansin	Lekala bo'yicha
8	Beyka qopqoq ustiga qo'yib ko'klansin	Beyka o'ngi bilan qopqoqning o'ngiga qo'yiladi, bunda beykaning qayrilgan cheti qopqoqdagi belgilangan chiziqqa to'g'ri kelishi kerak
9	Beyka qopqoqqa bostirib tikilsin	Bukilishdan 0,1 sm
10	Bostirib ko'klangan ip so'kib tashlansin	Ularni kesib
11	Cho'ntak qopqoq dazmollansin	
12	Ishlov berish davomi oddiy qopqoqqa ishlov berishdek	





**beykali cho'ntak qopqoqni
yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Bo'r, santimetr, qaychi	Q	
Bo'r	Q	
1022 kl mashinasi	M	
Qaychi	Q	
Dazmol	D	
Dazmol	D	
Bo'r	R	
1022 kl mashina	M	
1022 kl mashina	M	
Qaychi	Q	
Dazmol	D	

Cho'ntak qopqoqqa to'g'ri tashqi cheti bo'yicha ishlov

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t. sh.
1	Cho'ntak qopqoq va ostki qopqoq bichilsin	Ostki qopqoq bezak gazlamadan qopqoqdan kengroq beyka kengligida bichiladi
2	Ostki qopqoqqa bo'rda chiziq chizilsin yoki kertik qilinsin	Yon tomonlarida, buklash chiziq'ini belgilaydi
3	Ostki va ustki qopqoqqa biriktirma qaviq bilan ko'klansin	O'ngini o'ngiga qo'yib qirqimlar tekislanadi
4	Qopqoq ostki qopqoq biriktirma chok bilan tikilsin	Faqat bo'yiga
5	Ko'klash iplari so'kib tashlansin	Ularni kesib
6	Chok yorib dazmollansin yoki chok yotqizilsin	Gazlamaga qarab
7	Qopqoq ostki qopqoq bilan yon tomonidan ko'klansin	O'ng tomonini ichiga qaratib, qirqimlarini tekislab belgilangan chiziq yoki kertik bo'yicha. Chok kengligi 0,4–0,6 sm

**shakldagi beykaning
berish yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Bo'r, santimetr, qaychi	Q	
Bo'r, chizg'ich	Q	
Igna, ip	Q	
1022 kl mashina	M	
Qaychi	Q	
Dazmol	D	
Igna, ip	Q	





№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t. sh.
8	Yon tomoni ag'darma chok bilan tikilsin	Chok kengligi – 0,5–0,7 sm
9	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	Ularni kesib
10	Qopqoq o'ngiga ag'darilsin va ziy ko'klansin	
11	Ishlov berish davomi, xuddi oddiy qopqoqqa ishlov berishdek	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
1022 kl mashina	M	
Qaychi	Q	
Igna, ip	Q	

Cho'ntak qopqoq chetlarini gazlama bo'lagi bilan

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Gazlama bo'lagi bichilsin	Tanda ipiga 45° burchak ostida
2	Mag'iz uchun tayyorlangan bo'lak cho'ziladi	
3	Bo'yiga buklab dazmollansin	Teskarisini ichiga qaratib
4	Bo'lak qopqoq ustiga qo'yib ko'klansin	O'ngiga, qirqimlarini tekislab
5	Bo'lak chok bilan birlashtirilsin	Bo'lakda dumaloqlangan joylarida solqi hosil qilib. Chok kengligi mag'iz kengligiga teng
6	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	Ularni kesib
7	Kant hosil qilib, bukib ko'klansin	Chokni bo'lak bilan qayirib
8	Kant mashinada baxyaqator yuritib puxtalansin	Qopqoqning o'ngiga, bo'lak tikilgan chokka, bunda teskari tomondan baxyaqator bo'lakning ichki chetidan 0,1–0,2 sm ichkariga o'tishi kerak
9	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	Ularni kesgan holda
10	Qopqoq dazmollansin	
11	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	




**mag'iz choki, ikkilantirilgan
tikish yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Bo'r, santimetr, qaychi	Q	
Dazmol	D	
Dazmol	D	
Igna, ip	Q	
1022 kl mashina	M	
Qaychi	Q	
Igna, ip	Q	
1022 kl	M	
Qaychi	Q	
Dazmol	D	

To'g'ri shakldagi beykali biriktirma chok bilan ishlov

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Beyka bichilsin	Qopqoqning tashqi cheti shakliga moslab uch qismda bichiladi
2	Beyka bo'laklari aniqlansin va biriktirish choklarining chiziqlari belgilansin	Chiziqlar 45° burchak ostida o'tadigan bo'lsin
3	Beyka bo'laklari tikilsin	Beyka qismlari belgilangan chiziq bo'yicha tikiladi, ikki chetiga 0,5–0,7 sm qolganda baxyaqator to'xtatiladi
4	Choklar kesilsin	Chok haqi uchun 0,5–0,7 sm qoldirilsin
5	Chok yorib dazmollansin yoki ikki tomonga yotqizilsin	Jun, ipak gazlamalarida Paxta gazlamalarida
6	Qopqoq bichilsin	Astaridan beyka kengligida kichikroq bichiladi
7	Beyka ko'klansin	Qopqoq bilan o'ngini o'ngiga ichkariga qo'yib, kesimlarini tekislab 0,4–0,6 sm chok kengligida ko'klansin
8	Beyka choklab ulansin	0,5–0,7 sm chok kengligida
9	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	Ularni kesib
10	Choki yorib yoki yotqizib dazmollansin	Model va gazlamaga qarab
11	Ishlov berish davomi oddiy qopqoqqa ishlov berishdek	



**cho'ntak qopqoqqa
berish yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Bo'r, santimetr, qaychi	R	
Bo'r	R	
1022 kl mashina	M	
Qaychi	Q	
Dazmol	D	
Bo'r, santimetr, qaychi	Q	
Igna, ip	Q	
1022 kl mashinasi	M	
Qaychi	Q	
Dazmol	D	



Burmali cho'ntak qopqoqni

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Burma bichilsin	Asosiy yoki boshqa bezak gazlamadan. Tanda ipiga 45° burchak ostida, 1,5–3 sm (modelga qarab) chok kengligida, uzunligi qopqoqning tayyor holdagi uzunligidan 1,5–3 marta uzun. Burma bir nechta bo'lakdan iborat bo'lishi mumkin
2	Burma bo'laklari tikilsin	Qirqimlari tekislanib, o'ngini o'ngiga qo'yish, chok ip bo'ylamasi bo'yicha. Chok kengligi –0,5–0,7 (gazlamani titiluvchanligiga qarab)
3	Tikilgan burma bo'laklari yorib dazmollansin	
4	Burma qirqimi siniq baxya choki bilan tikilsin	Ochiq yoki yopiq qirqimli buklama chok bilan
5	Burmani ikkinchi qirqimi ipga terilsin	Ipni baxyaqator 0,5 sm va 0,5 sm o'rtasida
6	Kerakli uzunlik uchun ip tortilsin	
7	Qopqoq bo'laklari bichilsin (qopqoq ostki qopqoq)	Bir o'lchamdagi qopqoq va ostki qopqoq



tikish yo'l-yo'riq kartasi

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Qaychi, santimetr lentasi, bo'r, chizg'ich	Q	
1022 kl mashinasi 97 kl mashinasi	M	
Dazmol, dazmol doskasi, dazmol matosi	D	
"Zigzag" mashina 1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Santimetr lenta	Q	
Qaychi, bo'r, nazorat andaza	Q	

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
8	Tayyorlangan burma ostki qopqoqqa qo'yib ko'klansin	Chetlari tekislanib, ostki qopqoqning o'ngiga o'ngini yuqoriga qilib qo'yiladi. Chok kengligi – 0,4–0,6 sm. Burma detalning butun uzunligi bo'yicha tekis taqsimlanadi, burchaklari mustasno, chunki bu yerda burmalar boshqa joyga qaraganda ko'proq bo'ladi
9	Burma biriktirma chok bilan tikiladi	Burma ustidan, ikki chok orasidan yoki ikkinchisi ustidan hosil qilinadi
10	Burma tikilgan ostki qopqoq ustki qopqoq bilan qo'yilib ko'klansin	O'ngini o'ngiga qo'yib chetlari burchaklarida unchalik katta bo'lmagan solqi bilan tekislanadi. Chok kengligi – 0,4–0,6 sm
11	Qopqoq ag'darma chok bilan tikilsin	Ostki qopqoq tomonidan, burma tikilgan baxyaqator ustidan
12	Ko'klangan va ulab ko'klangan iplar so'kib tashlansin	3–5 sm oraliqda kesib
13	Burchakda choklar kesiladi (dumaloqlanganda kertimlar qilinsin)	0,1–0,2 sm kenglikda qoldirilib

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	Q	
Qaychi	Q	




№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
14	Qopqoq o'ngiga ag'darilsin, chetlari to'g'rilansin	
15	Qopqoq dazmollansin	Dazmol qizdirish harorati: ip uchun – 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun – 100–110°C, dazmollash matosi ustidan
16	Modelda bezak bostirma choki ko'zda tutilgan bo'lsa baxyaqator tikilsin	Chokdan 0,1–0,2 sm oraliqda. 1 sm dagi baxya zichligi 2,5–3
17	Qopqoqning ichki qirqimi yo'rmalsin	Qopqoq ustidan. Yo'rmash choki kengligi – 4 mm, baxyaqatordagi baxya zichligi 10 mm da 3–3,5
18	Tayyor qopqoq dazmollansin	Dazmol qizdirish harorati ip uchun – 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun – 100–110°C dazmollash matosi orqali
19	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Maxsus moslama	Q	
Dazmol, dazmol doskasi, dazmollash matosi	D	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Yo'rmash mashinasi	MM	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	
	Q	

Cho'tak qopqoq chetlariga choki bilan ishlov berish

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Qopqoq va ostki qopqoq bichilsin	Qopqoq va ostki qopqoq bir xil o'lchamda
2	Qopqoq va ostki qopqoq ko'klansin	O'ngini ichkariga qaratib, chetlarini tekislab
3	Tasma o'rtasidan uzunligi bo'ylab bukib, dazmollansin	Shunday buklansinki, tasmaning bir cheti 0,1–0,2 sm chiqib turadigan bo'lsin
4	Bukib tayyorlangan bo'lakka tayyorlangan qopqoq cheti qo'yiladi va tasma ko'klanadi	Dazmollab qayirilgan bo'lakka tayyorlangan qopqoq shunday qo'yiladiki, bo'lakning enli tomoni ostki qopqoq tomonda turadigan bo'lsin, tasma ensiz tomonidan ko'klanadi, bunda uning enli tomoni albatta baxya qator ostiga tushishi kerak
5	Qopqoq mag'iz chokida tikilsin	Qopqoq tomondan bitta baxyaqator bilan 0,1 sm da
6	Ko'klash va qo'yib ko'klash iplari so'kib tashlansin	
7	Qopqoqning ichki qirqimi yo'rmalsin	

**maxsus tasmada mag'iz
yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Qaychi, bo'r, nazorat andaza	Q	
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	Q	
Qirqimni yo'rmash mashinasi	M.M	






№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
8	Tayyor qopqoq dazmollansin	Dazmol qizish harorati: ip – 130–150°C, ipak – 100°C jun – 100–110°C
9	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	
	R	



Cho'ntak qopqoqqa yelimli qotirma

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Qopqoq va ostki qopqoq bichilsin	Qopqoq ostki qopqoqqa nisbatan 0,2–0,3 sm yon va past tomonlari bo'yicha kengroq bichiladi
2	Qopqoqqa yelimli qotirma qo'yib yopishtirilsin	Bir tomoniga yelim surkalgan gazlamadan tayyorlangan gazlama qopqoqning teskarisi yelimli tomoniga qo'yilib, dazmollab biriktiriladi
3	Qopqoq yelimli qotirma bilan ostki qopqoqqa ko'klansin	O'ngini ichkariga qilib qo'yiladi, avra burchaklarida va dumaloqlangan joylarida solqi hosil qilib ko'klanadi. Chok kengligi – 0,4–0,6 sm
4	Qopqoq ag'darma chok bilan tikilsin	Ostki qopqoq tomonidan mashina choki ko'klash qaviqqatori ustiga tushmasligi kerak, baxya zichligi 1 sm da 5–6 baxya
5	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	
6	Burchaklarda chok kesib tashlansin	0,2–0,3 sm kenglikda qoldirib

bilan ishlov berish yo'l-yo'riq kartasi

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Qaychi, bo'r, nazorat andazasi	Q	
Dazmol, dazmollash doskasi, bir tomonlama yelim qoplangan gazlama	D	
Igna, ip, angishvona, qaychi	R	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	Q	
Qaychi	Q	


№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
7	Qopqoq o'ngiga ag'darilsin, chetlari tekislandsin	
8	Qopqoqdan kant hosil qilib, qopqoq ziyl ko'klansin	Ziyl qopqoq tomondan ko'klanadi. Kant kengligida – 0,1–0,2 sm
9	Qopqoq dazmollansin	Ikki xil usulda: 1) dazmollash matosiz, ostki qopqoq tomonidan; 2) dazmollash matosi bilan qopqoq tomonidan, ko'klash iplari so'kib tashlanib, chok va laslar bug'lanadi. Dazmolning qizish harorati ip gazlamalar uchun – 130–150°C ipak – 100°C, jun – 100–110°C.
10	Agar model bo'yicha qopqoqning ustki tomonidan bezak choki ko'zda tutilgan bo'lsa bezak choki berilsin	Qopqoq ustidan. Chok kengligi – 0,5–0,7 sm, baxya zichligi 1 sm da – 2,5–3
11	Qopqoqning ichki qirqimi yo'rmalsin	Qopqoq tomondan yo'rmash choki kengligi 4 mm. Baxyaqator zichligi 10 mm da 3–3,5 baxya
12	Tayyor qopqoq dazmollansin	Dazmol qizish harorati ip uchun 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun 100–110°C
13	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Maxsus moslama	R	
Igna, ip, angishvona, qaychi	R	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	
1022 kl mashina 97 kl mashina yo'naltiruvchi chiz'gich, yo'naltiruvchi tepki bilan	M	
Ziy yo'rmash maxsus mashinasi	M.M	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	
	R	R




Ikki qismli qotirmasiz cho'ntak

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Qopqoq ikki qismdan bichilsin (qopqoq va ostki qopqoq)	Qopqoq ostki qopqoqqa nisbatan yon va pastki tomonlari bo'yicha 0,2–0,3 sm kengroq bichiladi
2	Ustki va ostki qopqoq o'ngini ichiga qaratib chetlari tekislanib ko'klansin	Qopqoq burchaklarida, dumaloq joylarida solqi hosil qilib ko'klansin. Chok kengligi 0,4–0,6 sm
3	Qopqoq ag'darma chok bilan tikilsin	Ostki qopqoq tomonidan, mashina choki ko'klash qaviqqatori ustiga tushmasligi kerak, baxya zichligi 1 sm da 5–6 baxya
4	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	
5	Burchak choklari kesib tashlansin	0,2–0,3 sm kenglikda qoldirib
6	Qopqoq o'ng tomoniga ag'darilib, chetlari to'g'rilansin	

qopqoqqa ishlov berish yo'l-yo'riq kartasi

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Qaychi, bo'r, nazorat andazasi	Q	
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	Q	
Qaychi	Q	
Maxsus moslama	M.M.	


№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
7	Qopqoqdan kant hosil qilinib qopqoq ziyi ko'klansin	Ostki qopqoq tomonidan ziy ko'klanadi. Kant kengligi — 0,1—0,2 sm
8	Qopqoq dazmollansin	Ikki xil usulda: 1) dazmollash matosiz, ostki qopqoq tomonidan; 2) dazmollash matosi bilan qopqoq tomonidan. Ko'klash iplari so'kib tashlanib chok va laslar bug'lanadi. Dazmol qizish harorati: ip uchun — 130—150°C, ipak uchun — 100°C, jun uchun — 100—110°C
9	Agar modelda qopqoqni ustki tomoniga bezak choki ko'zda tutilgan bo'lsa, bezak chok berilsin	Qopqoq ustidan. Chok kengligi — 0,5—0,7 sm, baxya zichligi 1 sm da 2,5—3
10	Qopqoqning ichki qirqimi yo'rmalsin	Qopqoq tomonidan. Yo'rmash choki kengligi — 4 mm. Baxyaqator zichligi 10 mm da 3—3,5 baxya
11	Tayyor qopqoq dazmollansin	Dazmol qizish harorati ip uchun 130—150°C, ipak uchun — 100°C, jun uchun 100—110°C
12	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Igna, ip, angishwona, qaychi	R	
Dazmol, dazmollash matosi, dazmollash doskasi	D	
1022 kl mashina 97 kl mashina yo'naltiruvchi chizg'ich tepki yo'naltiruvchi bilan	M	
Yo'rmash mashinasi	M.M.	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	
	Q	




**Qotirmasiz, yaxlit bichilgan
ishlov berish**

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Qopqoq bichilsin	Ostki qopqoq bilan (yaxlit bichilsin)
2	Qopqoq ikkiga buklansin va chetlari ko'klansin	O'ngini o'ngiga qo'yib, yuqori va pastki qirqimlari, chetlari tekislanadi
3	Chetlari ag'darma chok bilan tikilsin	Chok kengligi – 0,5–0,7 sm. Baxyaqator zichligi 1 sm da–5–6
4	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	Ylar 3–4 sm da kesiladi
5	Qopqoq o'ngiga ag'darilib, chetlari to'g'rilansin	
6	Qopqoq dazmollansin	Ag'darma choklarini ziyga to'g'ri keltirib, choklar yotqizilib dazmollanadi. Dazmolning qizish harorati: ip uchun – 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun – 100–110°C

**cho'ntak qopqoqqa
yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Qaychi, bo'r, nazorat andazasi	Q	
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	Q	
Maxsus moslama	Q	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	



№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
7	Agar modelda bezak baxyaqator nazarda tutilgan bo'lsa, baxyaqator tikilsin	Chok kengligi model bo'yicha baxyaqator zichligi – 1 sm da – 2,5–3
8	Bezak qopqoqni ichki tomoni yo'rmalsin	Qopqoq tomonidan. Yo'rmash chok kengligi 4 mm, baxyaqator zichligi 10 mm da 3–3,5 baxya
9	Tayyor qopqoq dazmollansin	Dazmol qizish harorati ip uchun 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun – 100–110°C
10	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
1022 kl mashina 97 kl mashina yo'naltiruvchi chizg'ich, yo'naltiruvchi tepki	M.	
Yo'rmash mashinasi	M.M.	
Dazmol, dazmollash daskasi, dazmollash matosi	D	
	Q	





Chetlari dumaloqlangan kant bilan tikish

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Kant uchun gazlama bo'lagi bichilsin	Tanda i piga 45° burchak ostida. 4–5 sm kenglikda (modelga ko'ra)
2	Chetlari dumaloqlangan qopqoq bichilsin	Bir xil o'lchamdagi ustki va ostki qopqoq
3	Bo'lakning teskarisi ichiga qaratib, bo'ylamasiga qayirilsin	O'rtasidan
4	Bo'lak cho'zilib dazmollansin	Qopqoq shaklida cho'zilsin
5	Bo'lak kant uchun ostki qopqoqning o'ng tomoniga qo'yilib, chetlari tekislansin va ko'klansin	Bo'lak tomonidan dumaloqlangan joylarida solqi hosil qilib ketiladi
6	Bo'lak ostki qopqoqqa choklab ulansin	Bo'lak tomonidan. Chok bo'lakning bukilishidan kant kengligining tayyor holiga 0,1 sm qo'shilganligiga teng bo'lishi kerak
7	Ko'klash iplari so'kib tashlansin	
8	Qopqoq va ostki qopqoq o'ngini ichkariga qilib qo'yib, qirqimlari tekislanib, to'g'ri sirma qaviq bilan ko'klansin	Dumaloqlangan joylarida solqi hosil qilib

**cho'ntak qopqoqqa
yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Qaychi, bo'r, chizg'ich	Q	
Qaychi, bo'r, nazorat andazasi	Q	
	Q	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi, suvpurkagich	D	
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha		
Igna, ip, angishvona, qaychi	Q	






№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
9	Qopqoq ag'darma chokda tikilsin	Ostki qopqoqdan. Baxyaqator kantni ulash baxyaqatori yoki undan 0,1 sm ichkarida tushiriladi
10	Ko'klangan va qiyib ko'klangan iplar so'kib tashlansin	
11	Dumaloqlangan joylarida kertimlar qilinsin	0,2–0,3 sm chok haqi qoldirib
12	Qopqoq o'ngiga ag'darilsin. Kanti tekislansin	
13	Qopqoq dazmollansin	Dazmolni qizdirish harorati paxta uchun 130–150°C, ipak uchun – 100°C jun uchun – 100–110°C
14	Modelda nazarda tutilgan bo'lsa bezak baxyaqator tikilsin	Ag'darma chokdan 0,1–0,2 sm masofada. Baxyaqator zichligi 1 sm da 2,3–3
15	Bezak qopqoqni ichki qirqimi yo'rmalsin	Qopqoqdan. Yo'rmash chok kengligi – 4 mm, baxyaqator zichligi 10 mm da 3–3,5 bahya
16	Tayyor qopqoq dazmollansin	Dazmol qizish harorati: in mato uchun – 130–150°C, ipak uchun 100°C, jun uchun – 100–110°C
17	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	R	
Qaychi	R	
Maxsus moslama	R	
Dazmol, dazmollash stoli, suv purkagich	D	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Yo'rmash mashinasi	M.M.	
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi	D	





To'g'ri to'rtburchak qopqoqni tikish

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	To'g'ri to'rtburchak shaklidagi, burchagi dumaloqlangan qopqoq bichilsin	Qopqoq va ostki qopqoqning o'lchamlari bir xil
2	Kant uchun ko'ndalang yoki bo'ylama gazlama bo'lagi kesib olinsin	Gazlamaning guliga qarab (bo'lak eni – 4–5 sm)
3	Bo'lak buklanib dazmollansin	Bo'lak uzunligi bo'yicha ikki buklanadi
4	Bukilgan ziyida yon tomonlarining o'lchamlari va kantning ochiq pastki tomoni belgilansin	
5	Bo'lak buklanib dazmollansin	Bo'lak uzunligi bo'yiga ikki buklanadi
6	Bukilgan ziyida yon tomonlarining o'lchamlari va kantning ochiq pastki tomoni belgilansin	Belgilangan chiziqlar bo'yicha o'rtasidan ikki tomonga qarab tayyor holdagi kant eniga 0,1–0,2 sm qo'shilgan kattalikda biriktirib tikiladi, dumaloqlangan joyiga bitta tushirib, baxyalarning uchi puxtalanadi
7	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	
8	Choklar kesilsin	
9	Choklar yorib dazmollansin	Ikki tomonga yotqizilib


**shaklidagi kantli
yo'l-yo'riq kartasi**

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Qaychi, bo'r, nazorat andazasi	Q	
Chizg'ich, bo'r, qaychi	Q	
Dazmol, dazmollash doskasi dazmollash matosi, suv purkagich	D	
Bo'r, santimetr, lenta	Q	
Bo'r, santimetr, lenta	R	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	Q	
Qaychi	Q	
Dazmol, dazmollash stoli, dazmollash matosi, suv purkagich		

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
10	Kant o'ngiga ag'darilsin va dazmollansin	O'ng tomoniga
11	Qopqoq va ostki qopqoq o'ngi ichkariga qilib, qirqimlari tekislanib ko'klansin	Dumaloqlangan joyida solqi hosil qilib
12	Qopqoq chetlari dumaloqlangan holda. Qopqoq ag'darma chok bilan tikilsin	Ostki qopqoq tomondan. Baxyaqator kantni ulash baxyaqatori bo'yicha yoki undan 0,1 sm ichkaridan tushiriladi
13	Ko'klash iplari so'kib tashlansin	
14	Dumaloqlangan joylarida kertik qilinsin	0,2–0,3 sm kenglikda qoldirilib
15	Qopqoq o'ngiga ag'darilsin, kanti tekislansin	
16	Qopqoq dazmollansin	Dazmol qizish harorati ip mato uchun – 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun 100–110°C, Mato qo'yib
17	Model bo'yicha bezak choki nazarda tutilsa	Ag'darma chokdan 0,1–0,2 sm chok kengligida. Baxyaqator zichligi 1 sm da – 2,5–3

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Dazmol, dazmollash doskasi, dazmollash matosi, suvpurkagich	D	
Igna, ip, angishvona, qaychi		
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	
Qoziqcha	Q	
Qaychi	Q	
Maxsus moslama	Q	
Dazmol, dazmollash stoli, dazmollash matosi, suv purkagich	D	
1022 kl mashina 97 kl mashina	M	

№	Texnologiya operatsiyasi	Bajansh uchun t.sh.
18	Bezak qopqoqning ichki qirqimi yo'rmalsin	Qopqoq tomondan. Yo'rmash choki kengligi – 4 mm, baxyaqator zichligi 10 mm da 3–3,5 baxya
19	Tayyor qopqoq dazmollansin	Dazmol qizish harorati ip uchun – 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun – 100–110°C
20	Qopqoqqa ishlov berish sifati tekshirilsin	

Jihozlar va moslama	Ish turi	Rasm
Ziy yo'rmash mashinasi	M.M. (s.m)	
Dazmol, dazmollash, matosi	D	
	Q	

Koketkalarni tikish

Asosiy detalga bostirma chok bilan ulangan

№	Bo'linmas texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Bichiq detallari nazorat andazasi bilan tekshirilsin	Bo'r chizig'ining qalinligi — 1-2 sm
2	Bichiq chetlaridagi ortiqcha material kesib tashlansin	
3	Ishlov berilayotgan burchak shakliga ko'ra asosiy gazlamadan mag'iz bichilsin	
4	Mag'izning ichki qirqimi yo'rmalsin	
5	Mag'iz o'ngi asosiy detal o'ngiga qaratib qo'yilsin va o'lchansin	Chok kengligi 0,4–0,5 sm. ip mato — 1 sm, ipak — 1,5 sm
6	Asosiy detal qirqimi mag'iz bilan ag'darma chokda tikilsin	Chok kengligi 0,7–0,5 sm ip — 1 sm; ipak — 1,5 sm
7	Burchak chokka 0,1 sm yetkazmasdan kertilsin	
8	Mag'iz o'ngiga ag'darilib, ziy ko'klansin	Ziy kengligi — 0,1 mm
9	Dazmollansin	Dazmol qizish harorati: ip — 130–150°C, ipak — 100°C, jun — 100–110°C
10	Ziy ko'klangan ip so'kib tashlansin	
11	Koketkani asosiy detalga qo'yib ko'klansin	


Ichki burchakli koketkani tikish

Jihozlar va moslamalar	Rasm
Nazorat andazasi	
Qaychi	
Bo'r, qaychi, chizg'ich	
Yo'r mash mashinasi	
Igna, angishvona, ip	
1022 kl mashina 97 kl mashina	
Qaychi	
Ip, angishvona, igna	
Dazmol	
Qoziqcha	
Igna, ip, angishvona	


Burmali koketkan

№	Bo'linmas texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Bichiq detallari nazorat andazasi bilan tekshirilsin	Bo'r chiziq qalinligi – 1–2 sm
2	Bichiq chetlaridagi ortiqcha material kesib tashlansin	
3	Burmani koketka ustiga o'ngini ichiga qaratib qo'yib, qirqimlari tekislansin va ko'klansin	Chok burma ustidan, kengligi – 0,9–1,4 sm, ip mato – 0,9 sm, ipak mato– 1,5 sm
4	Burmali koketka asosiy detal ustiga chetlari tekislanib qo'yilsin va ko'klansin	Chok kengligi – 1–1,5 sm, ip mato – 1 sm, ipak mato– 1,5 sm
5	Choklab ulansin	Chok koketka ustidan 1–1,5 sm, ip – 1 sm; ipak – 1,5 sm
6	Ko'klash ipi so'kib tashlansin	
7	Yo'rmalsin	Asosiy detal bo'yicha
8	Ulangan chok koketka tomonga bukib ko'klansin	Qaviq uzunligi – 1,5–2 sm
9	Koketka tomonga bukib dazmollansin	Dazmol qizish harorati ip uchun – 130–150°C, ipak uchun – 100°C, jun uchun – 100–110°C

tikish

Jihozlar va moslamalar	Rasm
Nazorat andazasi, bo'r	
Qaychi	
Igna, ip, angishvona	
Igna, angishvona, ip	
Tikuv mashina 97 kl mashina 1022 kl mashina	
Qaychi, qoziqcha	
Ziy yo'rmash mashinasi	
Ip, igna, qaychi	
Dazmol	



№	Bo'linmas texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
10	Bukib ko'klash iplari so'kib tashlansin	
11	Bostirma chok bilan bezak choki tikilsin	Model bo'yicha o'ng tomonidan
12	Ishlov berilgan uzelga uzil-kesil namlab isitib ishlov berilsin	

Jihozlar va moslamalar	Rasm
Qoziqcha, qaychi	
Tikuv mashina 1022 kl 97 kl	
Dazmol, dazmollash doskasi	


Pastki ziylari to'g'ri va ovalsimon

№	Bo'linmas texnologiya operatsiyasi	Bajarish uchun t.sh.
1	Bichiq detallari nazorat andazasi bilan tekshirilsin	Bo'r chizig'ining qilinligi – 1–2 sm
2	Bichiq chetlaridagi ortiqcha material kesib tashlansin	
3	Asosiy detalda burma yoki taxlama hosil qilinsin	
4	Koketkaning qirqimlarini to'g'rilab asosiy detalga ko'klansin	O'ngini o'ngiga qaratib, chok – 0,9–1,4 sm, burma tomondan ko'klanadi
5	Koketkani asosiy detalga biriktirma chok bilan tikilsin	Ulab tikish koketka tomondan. Chok – 1,5 sm, 1 sm da – 1–5 baxya
6	Ko'klash iplari so'kib tashlansin	
7	Qirqimlar yo'rmalsin	Asosiy detal tomonidan
8	Koketkaning biriktirma choki koketka tomonga bukib ko'klansin	
9	Choki bukib dazmollansin	

shakldagi koketkalarni tikish

Jihozlar va moslamalar	Rasm
Nazorat andazasi, bo'r	
